



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 27 yanvar

№ 1766

O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Isakulov Sanjar Turdikulovich – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga, shundan besh yil muddatga Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Oqqo‘rg‘on tuman sudining raisi lavozimiga tayinlansin;

Xabibullayev Azamat Anvarovich – sudyalik vakolati muddati davriga Andijon viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Andijon viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Izboskan tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Turakulov To‘lkin Appakovich – sudyalik vakolati muddati davriga Andijon viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Izboskan tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Farg‘ona viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Mamajonov Burhonjon Maxmudovich – sudyalik vakolati muddati davriga Farg‘ona viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Farg‘ona tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Gofurov Muzaffar Mirzajonovich – sudyalik vakolati muddati davriga Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Farg‘ona tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Farg‘ona viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Farg‘ona tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Umarova Mavlyuda Nazimovna – sudyalik vakolati muddati davriga Farg‘ona viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Farg‘ona tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Farg‘ona viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Rishton tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Minojiddinov Abdurasul Baxodirovich – sudyalik vakolati muddati davriga Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Buvayda tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Farg‘ona shahar sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov